



**O‘zbekiston Respublikasi  
Xalq ta’limi vazirligi**

**O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-  
pedagogik respublika tashxis markazi**

**INKLYUZIV TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI:  
MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI**

**respublika ilmiy-amaliy konferensiya**

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**



**Toshkent-2022**

balki klaster faoliyati natijasi bo'lgan o'ziga xos (ta'lim xizmati, o'quv jarayoni va kadr) mahsulot sifatidadir. Ta'lim klasterida asosiy mahsulot ta'lim xizmatlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta'lim klasteri turli darajadagi va mutaxassislikdagi ko'plab ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Biroq, sanoat va ta'lim klasterlarini ajratish nafaqat akademik qiziqish, balki amaliy g'oyadir. Agar klaster ta'lim muassasalar ishtirokidagi tarmoq klasteri sifatida qaralsa, u holda klaster korxonalarida xodimlarning bilim darajasini oshirish vazifalari, boshqaruvni ustuvor vazifalari qatoriga kiradi. Bunda, korxonadan ilmiy-tadqiqot ishlariga so'rovni shakllantirish, ta'lim muassasalaridagi ilmiy potensial orqali mavjud ishlanma va texnologiyalarni tijorat jihatdan muvaffaqiyatli mahsulotga aylantirish vazifalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

A.V.Smironov ta'kidlaganidek, agar klaster tizimi va uning maqsadi-ta'lim mazmuniga singdirilsa, mintaqada ta'lim sifati barqaror samaradorlikka erishadi, hamda jamiyat uchun ustuvor vazifaga aylanadi[6]. Biz bugungi kunda respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limning klaster modelini joriy etish ustuvor masalalardan biri deb bilamiz. Chunki bu zamon talabi bo'lib, dunyo hamjamiyati bilan integratsiya jarayoni tezlashib borayotgan bir davrda, chetda qoladigan masalalardan emas. Uning nazariy asosi mustaqil hayot falsafasi bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyat bilan integratsiyasi va sotsializatsiyasini ta'minlash, hamda ularni mavjud qobiliyatlarini ro'yobini yuzaga chiqarishdir.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim klasterida markaziy o'rinni umumiy maqsad egallaydi, ya'ni imkoniyati cheklangan bolalarga zamonaviy ta'lim dastur va xizmatlaridan foydalanishda teng imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida, imkoniyati cheklangan bolalar o'qish va o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishadi, shaxsiy ko'nikmalarini shakllantiradi, hamda kasbiy qiziqishlarini rivojlanishga bo'lgan ishtiyoq ortib, istiqbolda egallashi zarur bo'lgan kasb yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qiladi.



## INKLYUZIV TA'LIMNI IJTIMOIIY-PEDAGOGIK OMILLARI VA UNING INNOVATSION KLASTER SHAROITLARI

Sh.Kobilova-Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi, Z.Rustamova, F.Abdushukurova-CHDPU Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasida 3-bosqich talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning klaster modelini ishlab chiqish va amaliyotga realizatsiya etish masalalari, bu jarayon real ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi lozimligi, amaliy ahamiyati, amalga oshirish yuzasidan mas'ul va manfaatdor tashkilotlarning hamkorlik faoliyatlari, hamda samaradoligi yuzasidan ilmiy qarash va tahlillar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv, imkoniyati cheklangan o'quvchi, klaster, model, ilmiy tadqiqot, ijtimoiylashuv, integratsiya, ta'lim, samaradorlik, yondashuv, ilmiy mulohaza

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishning klaster modeli inklyuziv ta'limni ta'minlaydigan mas'ul va manfaatdor vazirlik va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni zamonaviy pedagogik, hamda tashkiliy masalalarini taqozo etadi. Inklyuziv klaster sub'ektlarining o'zaro va o'z-o'zini rivojlantirishi, mavjud muammo ustida ishlash jarayonida barqaror hamkorlikni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon inklyuziv ta'lim ishtirokchilarni ham, klasterning ham o'ziga xos afzalliklarini yuzaga chiqaradi.

R.M.Asadullin ta'kidlaganidek, ta'lim klasteridagi integratsiya nafaqat ta'lim muassasalarining turli tarkibiy bo'linmalarini rasmiy birlashmasi, balki qo'yilgan vazifalarni hal qilishda super effektga erishish uchun mavjud potensiallarni konyugatsiya qilishni yangi shaklidir.

Albatta konyugatsiya (jarayon va holatlar birligi) natijasida inklyuziv ta'lim sharoitida yuqori samaradorlikni yuzaga chiqarib, imkoniyati cheklangan bolalarda ham super effekt potensialini klaster modeli negizida shakllantirish mumkin.

Shu nuqtai nazardan ilmiy tadqiqot ishimizda inklyuziv ta'limning klaster modelini ishlab chiqish va amaliyotga realizatsiya etish masalalari bosqichma-bosqich amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu jarayon real ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi nazarda tutilgan holda nazariy va amaliy misol va omillar bilan yanada kengroq asoslanadi. Ta'kidlash lozimki, bu jarayon real ilmiy-amaliy tayyorgarlik bosqichini taqozo etadi. Inklyuziv ta'limning klaster modelini amalga oshirish yuzasidan mas'ul va manfaatdor tashkilotlarning hamkorlik ishlari yuzasidan loyihaviy ishlar rejalashtirilgan bo'lib, uning samaradorligini baholash ilmiy tadqiqot ishimizni asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Shuningdek, respublika xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha klaster modelini joriy etishda manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish yuzasidan ilmiy – amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan bo'lib, tashkiliy masalalarda klasterning afzalliklari yoritilgan holda imkoniyati cheklangan bolalar (o'quvchilar)ni o'qitish jarayonini tashkil etish imkonini zamon talabi darajasida tashkil etish va pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishni ilmiy asoslari yaratiladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik omillarini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi tahlili shuni ko'rsatdiki, bu jarayon ko'p funksiyali xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. N.M.Nazarova nuqtai nazaricha inklyuziv ta'limda ijtimoiy-pedagogik yondashuv, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ning tabiati va hissiy hayoti tajribasini ijtimoiy jihatdan aniqlashga va yo'naltirishga xizmat qiladi.

N.M.Nazarovanning ilmiy mulohazalariga qo'shilgan holda, quyidagi ilmiy gepotizani ilganri surshni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ga shaxsiy yondashuv jarayoni orqali ijtimoiy integratsiyani yuzaga chiqarib, ijtimoiy muhit bilan faol kommunikativ o'zaro ta'sirga yo'naltiradi, hamda olingan bilim va ko'nikmalar muvofiqligini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lim tushunchasi interaktiv yondashuv orqali amalga oshiriladigan ekzistensializm, pragmatizm, postmodernizm, fenomenologiya kabi falsafiy g'oyalari bilan ifodalanadi. Aynan shu yondashuvni tadqiqotchi N.M.Nazarova xorijiy pedagogikada inklyuziv ta'limning nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi deb ta'kidlaydi.

A.V.Suvorovning ta'kidlashicha, har qanday ta'lim, shu jumladan inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) ni o'qitishda ijtimoiy-madaniy omillarga asoslantirilishi lozim. Ta'lim jarayonida madaniyat o'zlashtirilmaydi, balki qayta yaratiladi. Hayot davomida o'z-o'zini tarbiyalash shaklida ideal tarzda davom etadigan ta'lim jarayoni natijasida har bir kishi o'ziga xos, individual madaniyat namunasini rivojlantiradi.

A.Yu.Shemanov imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) o'qitish jarayonida “maxsus madaniy ehtiyojlarini” hisobga olish zarurligini asoslaydi. Uning nuqtai nazaricha bunday ehtiyojlarni hisobga olish muayyan munosabatlar tizimlarini, identifikatsiyalarni tashkil etuvchi elementlarning o'ziga xos xususiyatlarini, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) uchun mos keladigan madaniy muhitni tavsiflashni anglatadi. Uning ta'kidlashicha, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni nuqsoniga emas, balki qobiliyatiga e'tibor qaratish lozim.

Alicia Broderick, Heeral Mehta-Parekh, D.Kim Reid umumiy ta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) larni inklyuziv madaniyat shakllanmagan sharoitda o'qitishni tashkil etish, jamiyatda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishni ta'kidlagan. Ularning nuqtai nazaricha inklyuziv madaniyat kundalik hayotda namoyon bo'ladigan va chinakam inklyuziv maktabni belgilovchi ko'rsatkich sifatida xizmat qiluvchi murakkab hodisadir.

Bizningcha, inklyuziv ta'limni madaniy omillar asosida tashkil etish, gumanistik yondashuv sifatida e'tirof etilib, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi) lar ta'limi umuminsoniy – madaniy qadriyatlar negizida shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

N.Ya.Semago nuqtai nazaricha inklyuziv ta'limning mohiyatini sinergetik yondashuv tashkil etadi. Shuningdek, tizimli tahlilning toifali matritsasiga triadilik, strukturaviy o'zgarishlar

sinxronligi (sintonalligi), simulyatsiya qilingan tizimlarni fraktalligi (o'ziga o'xshashligi) kiritilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Sinergetik yondashuv inklyuziv ta'lim tizimi rivojlanishining muayyan bosqichlarida o'zgarishlar dinamikasi va xarakterini nazorat qilish uchun ahamiyat kasb etadi.

Bu borada tadqiqotchi N.M.Nazarovani ilmiy mulohazalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning nuqtai nazaricha inklyuziv ta'limda sinergetik yondashuv asosiy o'rinlardan birini egallaydi. "Ta'lim integratsiyasining tashkiliy-pedagogik muammolarini hal qilishda sinergetik yondashuvdan foydalanish nafaqat tizimni rivojlantirishda bifurkatsiya nuqtalarini aniqlash ta'minlaydi, balki unga o'z vaqtida yordam beradi".

Bizning nuqtai nazarimizcha bu yondashuvdan inklyuziv ta'limni tashkil etishda foydalanish imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)lar shaxsi bilan bog'liq muammolarni tizimli bartaraf etish, hamda dinamik muvozanatni barqarorlashtirishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, pedagogik texnologiyalarini asoslash va rivojlantirish, hamda individual ta'lim ehtiyojiga muvofiq o'zgarishlarni yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan inklyuziv ta'limni jahon inklyuziv ta'lim jarayoni integratsiyasining nazariy va uslubiy asoslari bilan bog'lash, mahalliy va mentalitetimizga mos uslubiy asoslarni ishlab chiqish O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tizimli institutsional o'zgarishlarga o'tish yo'lidagi muhim omillardan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, inklyuziv ta'limni tashkil etish va jamiyat hayotiga joriy etishda eng qiyin masalalardan biri odamlarning ongi va dunyoqarashidagi nostandart fikr – mulohazalarni muvofiqlashgan tizimga keltirishdir. Bunda, eng avvalo, uning nazariy va uslubiy, hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish, zamonaviy mexanizmlarini aniqlab olish, jamiyat munosabatini insoniylashtirish va imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni ta'lim olish huquqini ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik va psixologik asoslarini muvofiqlashtirish lozim.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimini zamona talabiga moslash, manfaatdor tashkilot va idoralar faoliyatini muvofiqlash, ijtimoiy-pedagogik islohotlarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va uning umumiy ta'lim bilan integratsiyasini ta'minlash, hamda jamiyat ta'lim tizimi bosqichlarida inklyuzivni samarali mexanizmini joriy etish va inklyuziv ta'limning asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.



## INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINING ASOSIY TAMOYILLARI

M.Nizamova-Namangan davlat universiteti o'qituvchisi,  
Z.Yusupova-Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi  
O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik xizmat  
ko'rsatish sho'basini yetakchi mutaxassisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini qo'llash, ularni talqin etish, inklyuziv ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan yoritib beradi.

**Tayanch so'zlar** Inklyuziv ta'lim, diskriminatsiya, integratsiya, imkoniyati cheklangan bolalar, kompleks, korreksion.

Davlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yetkazishdan iborat. Hukumatimizning qator qonun va qonun osti hujjatlarida jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'rgatish, sog'lom bolalar qatoridan o'rin olib, o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishga, ma'naviy kamol topishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 2014), O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997),

G.Aliyeva, Inklyuziv sinfda alihida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash usullari.....	216
Sh.Xosiljonova, Inklyuziv ta'lim amaliyotda.....	219
M.Ismailova, Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga saralash.....	220
Sh.Kurbanova, Inklyuziv ta'lim jarayonida pedagog xodimlar faoliyati va ota-onalar hamkorligi.....	223
G.Asrorova, Inklyuziv ta'limning istiqbolli kelajagi va amaldagi islohotlari.....	226
A.Yuldashev, Inklyuziv ta'limga jalb qilishda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish .....	228
M.Yuldasheva, Inklyuziv ta'limda bir yillik samarali mehnat va natijalar .....	231
Sh.Kobilova, Inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda pedagogik ta'lim innovatsion klasterining roli.....	233
Sh.Kobilova, Z.Rustamova, F.Abdushukurova, Inklyuziv ta'limni ijtimoiy-pedagogik omillari va uning innovatsion klaster sharoitlari.....	235
M.Nizamova, Z.Yusupova, Inklyuziv ta'lim tizimining asosiy tamoyillari.....	237
N.U.Xo'jaqulova, Inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion fanlarda kitobxonlik madaniyatini shakllanishida axloqiy tarbiyaning psixologik xususiyatlari .....	241
Y.A.Xomidova, Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari:muammo va ularning echimlari asnosida kichik maktab yoshidagi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish.....	242
R.N.Botirova, Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari:muammo va ularning yechimlari "voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda kitobning o'rni".....	245
G.Xasanova, Inklyuziv ta'limda alohida yondashuvning ahamiyati .....	246
D.R.Djurayeva, Inklyuziv ta'limda insonparvarlik g'oyalarining o'rni.....	248
Sh.Nosirova, Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilishda ota-onlarga tavsiyalar .....	250
D.Alimova, Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlashda innovatsion yondashuvning afzalliklari .....	251
D.Alimova, Shaxs xususiyatlarini diagnostikalash metodlariga qo'yiladigan talablar .....	253
Sh.T.Gafurova, Inklyuziv ta'limda maktab va oila hamkorligining amaliy asoslari .....	256
G.Q.Haydarova, Xalq ta'limi muassasalarida inklyuziv ta'lim masalalari.....	258
G.M.Salixova, Oilada nogironligi bo'lgan kar va zaif eshittuvchi o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligi.....	260
S.M.Bahriddinova, Ta'lim tashkilotlarida innovatsion inklyuziv ta'limni tashkil etish masalalari.....	264
M.Nizamova, P.Botirova, Imkoniyati cheklangan bolalarni pedagogik jihatdan o'rganish.....	266
Ch.M.Ulug'murodova, Inklyuziv ta'lim sinfi va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda matematika darslarini tashkil etish .....	270
B.Z.Fozilov, Inklyuziv ta'lim" tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.....	273
B.M.Abdullayev, "Inklyuziv ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi mutaxassisligini tashkil etishning maqsadi va vazifalari.....	275
N.J.Mavlonova, Inklyuziv mahoratda nutqning ahamiyati.....	277
M.A.Nasirova, Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan maxsus pedagogning zamonaviy qiyofasi.....	279
D.Abdullayeva, Olamzor tumanidagi umumta'lim maktabida inklyuziv ta'lim.....	281
A.M.Yuldashev, Inklyuziv ta'limga jalb qilishda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish.....	283
D.S.Sabirova, Inklyuziv ta'lim haqida tushuncha va tavsiyalar, o'zbekistonda inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yilishi .....	286